

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMİY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMİY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

T.Egamberdiyeva Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	7
R.Safarova, M.Abdullayev Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari va metodlari	11
J.Obidov Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati	16
F.Madraximova Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	21
X.Tojiboyeva O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	26
IQTISODIYOT	
M.Yuldasheva, A.Kolkanatov Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing	29
S.Ismoilova Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi	34
FALSAFA, SIYOSAT	
A.Yuldashov Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'рни	39
D.Raxmatova Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri (xx asrning 40-50 yillar misolida)	47
TARIX	
B.Matboboyev, A.Aloxunov Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari	53
S.To'raxo'jayev Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan	58
R.Ahmedov Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar)	63
Sh.Jumayev Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun	70
I.Xo'jaxonov Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi	74
A.Sarsenbayev, N.Turambetov Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI)	78
R.Akbarov Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy resurslardan foydalanish masalasi.....	85
R.Murodaliyev So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida.....	92
N.Turambetov Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim.....	98
X.Ergasheva 1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi.....	103
Sh.Xonimov Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga globallashtirish jarayonlarining ta'siri	109

UDK: 008:1-027.21

DOI: [10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a13](https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a13)**FARG'ONA VILOYATIDAGI KATOLIK JAMOALARINING FAOLIYATI: TARIX VA BUGUNGI KUN****ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАТОЛИЧЕСКИХ ОБЩИН ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ****HISTORY AND CURRENT ACTIVITIES OF CATHOLIC COMMUNITIES IN FERGANA REGION****Jumaev Shohruh Shuhratjon o'g'li¹****¹Jumayev Shohruh Shuhratjon o'g'li**

– O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktranti.

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan turli diniy konfessiyalar faoliyati, xususan, xristianlik dini katolik yo'nalishini O'zbekiston hududida paydo bo'lishi, yashagan joylari va mintaqamizda tarqalishi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, Farg'ona viloyatidagi katolik jamoasi tarixi va bugungi kundagi faoliyati, Islom dini kirib kelgunga qadar va Islom dini tarqalgandan keyin ham viloyat hududi turli dinlar, millatlar tinch va totuv yashagan mintaqaga bo'lganligi maqolada keltirib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье представлена информация о деятельности различных религиозных конфессий в Узбекистане, в частности о распространении католицизма в Узбекистане. В статье также упоминается история и современная деятельность католической общины в Фергане, а также тот факт, что до и после распространения ислама Фергана была регионом, где в мире и согласии жили представители различных религий и национальностей.

Abstract

This article provides information on the activities of various religious denominations in Uzbekistan, in particular on the spread of Catholicism in Uzbekistan. The article also mentions the history and modern activities of the Catholic community in Fergana, as well as the fact that before and after the spread of Islam, Fergana was a region where representatives of various religions and nationalities lived in peace and harmony.

Kalit so'zlar: Din, xristianlik, islom, buddaviylik, zardushtiylik, moniylik, pravoslav, katolik, protestant, cherkov, ibodat, rohib, marosim, millat, yetti sirlı marosim, bag'rikenglik, Farg'ona, e'tiqod erkinligi, vıjdon ekrinligi.

Ключевые слова: Религия, христианство, ислам, буддизм, зороастризм, манихейство, православие, католицизм, протестантизм, церковь, молитва, монах, обряд, нация, семь таинственных обрядов, толерантность, Фергана, свобода вероисповедания, свобода совести.

Key words: Religion, Christianity, Islam, Buddhism, Zoroastrianism, Manichaeism, Orthodoxy, Catholicism, Protestantism, church, prayer, monk, rite, nation, seven sacramental rites, tolerance, Fergana, freedom of religion, freedom of conscience.

KIRISH. O'tmishdan ma'lumki, yurtimizda azaldan zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik hamda islom dini vakillari o'zaro inoq va tinch – totuvlikda istiqomat qilishgan. Bu haqda fikr yuritganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo hos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi"

Mamlakatimizda tinchlikni yanada mustahkamlash, millatlararo barqarorlikni yuksaltirish maqsadida 2017-yil 19-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi[1]. Farmonga muvofiq, Baynalmilal madaniyat markazi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar hamda do'stlik jamiyatlarini qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishida davlat idoralari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirishda mustahkam tayanch bo'ladi.

TARIX

Ayni paytda, respublikamizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillari hamda turli diniy konfessiyalar faoliyatida o'zaro hurmat, sabr-toqat, bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirishda ilmiy-nazariy tadqiqotlarning ahamiyati beqiyos.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Bugungi kunda yurtimiz ijtimoiy hayotida o'z tarixi, ruhiy-madaniy qadriyatlarini anglashga yangicha yondashish jarayonlari yaqqol sezilmoqda. Ko'p konfessiyali sharoitda mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash masalalari tadqiqotchilarni diniy konfessiyalar yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borishga undamoqda.

Farg'ona viloyatidagi diniy tashkilotlar tarixi, shakllanishi, faoliyati, namoyon bo'lish xususiyatlari hamda uning jamiyat barqarorligiga ta'sirini o'rganishda Svetlana Gubaeva "Ферганская долина. Этнические процессы на рубеже XIX-XX вв"[2]., Y.F.Buryakov L.I.Jukova V.N.Proskurin "К истории христианства в Средней Азии (XIX-XX вв)"[3], O'.Hasanboev "O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: Diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari"[4] kabi kitoblarda ma'lumotlar keltirilgan Ushbu maqolani yozishda tarixiy metodlar hisoblangan tarixiylik, haqqoniylik, aniqlik, tarixiy manbalarga asoslanish, tizimlilik, qiyosiy tahlil kabi tamoyillarga tayanildi.

Natijalar va muhokama. Qo'qon xonligi Rossiya podsho hukumati tomonidan 1877 yilda bosib olinganidan so'ng, markazi Qo'qon shahar bo'lgan Farg'ona viloyatiga asos solingan. Biroq, Qo'qon hududidan turib o'lkaning keng hududini nazorat qilish murakkablik tug'dirdi, bu Rossiya podsho hukumatini yangi harbiy-ma'muriy markaz yaratishga undadi. Yangi shaharning joylashuvi sifatida eski Marg'ilon shahridan 12 kilometr uzoqlikda joylashgan joy tanlandi. Shahar qurilishi 1876-yilning kuzida boshlanib, uning birinchi nomi Yangi Marg'ilon bo'lib, Mixail Dmitrievich Skobelev Farg'ona viloyatining birinchi general gubernatori etib tayinlanadi[5].

1907-yil dekabrda Mixail Dmitrievich Skobelev vafotining 25 yilligi munosabati bilan shahar uning sharafiga yangi nom oldi - Skobelev. Hozirgi Farg'ona viloyati hududi 1938-yil 15-yanvarda qayta tashkil etilgan[6]. 1941-yilda esa uning tarkibidan Namangan va Andijon ajralib chiqqan. Viloyatning hozirgi hududiy birligi 1960-yilda shakllangan. Uning hududiy maydoni 6,76 km kvadrat, aholi zichligi har kilometr kvadratga 462,9 kishi to'g'ri keladi. Viloyatda bugungi kunda aholi soni 3 million 782,2 ming nafarni tashkil etadi. Shahar aholisi 2 mln 133,2 ming nafar. Farg'ona viloyatida 15 ta tuman, 9 ta shahar va 197 ta shaharcha mavjud. Viloyat markazi Farg'ona shahri hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib viloyatda 50 dan ortiq qardosh millat va elat vakillari tinchlik-totuvlikda umrguzaronlik qilishmoqda. 7 ta milliy madaniy markazlar - slavyan, tatar, nemis, tojik, qirg'iz, yahudiy, koreys o'z faoliyatini olib bormoqda.

Jumaladan, viloyatning shahar tumanlarida istiqomat qiluvchi aholining 208811 tojik, 70866 qirg'iz, 42783 rus, 5864 koreys, 4 970 ukrain, 2 700 tatar, 1 600 ozarbayjon, 990 qozoq, 970 qoraqalpoq, 560 belorus, 480 turkman, 38 800 nafarini esa boshqa millat vakillari tashkil etadi.

Farg'ona viloyati tarixi qadimdan turli etnik guruhlar, turli e'tiqod va dinlar to'plangan, ya'ni tolerantlik yuqori darajada bo'lganligini, bu yerda buddaviylik, zardushtiylik, xristianlik, yoki ayrim etnik guruhlarda shomoniylilik ham bo'lganligini tasdiqlaydigan misollar ko'plab uchraydi. Islom kirib kelgunga qadar ushbu dinlar Farg'onada o'z tarafdorlariga va e'tiqod qiluvchilariga ega bo'lgan. Hozirda viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 14 ta noislomiy diniy tashkilotlar mavjud. Xususan, katolik yo'nalishiga mansub xristianlar ham Farg'ona viloyatida faoliyat olib boradi.

Katolik jamoalarining O'rta Osiyoga dastlabki missiyalari XII asrda kelgan bo'lib, keyingi uch asr davomida ular asosida bosqichma-bosqich katolik jamoalar shakllanib, cherkovlar vujudga kelgan. O'zbekiston hududidagi birinchi katolik yeparxiyasi 1340-yili Urganch shahrida tashkil etilgan[4.55]. Katolik yo'nalishinig asosiy jamoalari XIX asr oxirlarida paydo bo'la boshlagan. Bu jamolarinig ko'payishiga sabab Turkiston hududiga juda ko'p miqdorda litvaliklar, polyaklar, chexlar, fransuz, venger va nemis millatiga mansub fuqarolarning ko'chirilishi sabab bo'lgan. O'lkaga kelgan katoliklar asosan Toshkent, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax, Ashxobod, Chorjuy, O'ratepa, Xo'jand, Qo'qon, Andijon, Yangi Marg'ilon kabi shaharlarda va boshqa aholi punktlarida yashagan. Rossiya imperiyasining 1897-yildagi birinchi yalpi aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, Turkiston o'lkasi hududida 11056 katolik yashar edi. Ularning yarmidan ko'pi hozirgi O'zbekiston tarkibiga kiruvchi uch viloyat – Sirdaryo (2956), Samarqand (1664) va Farg'ona (1590) viloyatlariga to'g'ri kelardi[3.213].

1875-yilda birinchi marta Toshkent shahrida doimiy faoliyat olib boruvchi katolik ruhoniysini tayinlash uchun iltimosnoma kiritilgan, lekin bunga ruxsat berilmagan. XIX asr 80-90-yillarida bir qancha ruhoniylar Toshkent va O'zbekistonning boshqa shaharlarida istiqomat qiluvchi katolik jamolarining ibodatlarida qatnashish uchun vaqti-vaqti bilan tashrif buyurishgan. 1897-yilda Toshkent harbiy okrugida xizmat qilgan katolik harbiy xizmatchilar uchun katolik ruhoniylarining yillik xizmat safari amaliyoti paydo bo'lgan. XX asr boshlarida Farg'onada katolik cherkovi qurildi, 1983-1985-yillarda faoliyat olib borgan birinchi rasmiy katolik ruhoniysi Ferdinand Senchikovskiy tomonidan Toshkentda ham birinchi katolik cherkovi ochilib, ibodatlar amalga oshirilgan. Sovet davrida ushbu cherkovlarning barchasi yopilgan. 1917-yilda Rossiyada hukumat tepasiga bolsheviklarning kelishi va dinga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida Turkiston hududida yashovchi katolik jamolarining ham ahvoli yomon holatga tushgan. 1917-yilda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Turkiston hududida 11 mingdan oshiq katolik yo'nalishiga e'tiqod qiluvchi insonlar yashagan. Oradan uzoq yillar o'tgandan keyingina 1987-yilga kelib Farg'onada katolik cherkovi tashkil etilgan. Yurtimizda bugungi kunda katolik yo'nalishiga mansub 5 ta cherkov va 9 ta ruhoniylar xizmat qiladi. Cherkovlar Toshkent shahri, Samarqand shahri, Farg'ona shahri, Buxoro viloyati va Urganch shahrida faoliyat olib bormoqda.

Farg'ona viloyatidagi cherkov 1987-yilda Volgabo'yi nemislari ko'p yashaydigan Farg'ona shahrining Qirguli mavzesida ochilgan. Cherkov asoschisi Ukrainalik katolik ruhoniysi Iosif Svidnitskiy edi[7]. Ushbu cherkovning birinchi e'tiqod qiluvchilaridan biri Inna Arkadevna Shvaytsning aytishicha, Farg'ona shahrida yashovchi katolik jamolari a'zolari tomonidan birgalikda pul mablag'i yig'gan holda hovli joy sotib olinib, keyinchalik ushbu joy cherkovga aylantirilgan. 1991-yildan buyon cherkovga aka-uka Avliyo Fransis ordeni rohiblari xizmat qiladi. Cherkov binosi 576,74 kv. metr bo'lib, ichki ibodat qilinadigan joy, zal va ruhoniylar xonalaridan iborat, shuningdek Iso Masih, Bibi Maryam va avliyolarning haykallari bilan jihozlangan. Asosiy ibodat qilinadigan kun yakshanba bo'lib, shu kuni cherkovga 50-60 nafargacha ibodat qiluvchilar tashrif buyuradi. Boshqa kunlarda 3-4 nafargacha ibodat qiluvchilar cherkovga keladi. Cherkov ruhoniysi bilan suhbatda ibodatga tashrif qiladiganlar asosan chet el fuqarolari bo'lib, mahalliy aholi soni kamchilikni tashkil etadi deb fikr bildirdi.

Farg'ona viloyatidagi cherkovda ham pravoslavlardan farqli ravishda katoliklar cho'qintirish amalini suvga botirib emas, balki ustidan suv quyish orqali bajaradilar. Bolalarga xushbo'y moy surtish marosimi cho'qintirish bilan bir vaqtda emas, balki ular sakkiz yoshga yetganlaridan so'ng yepiskop tomonidan amalga oshiriladi. "Prichashchenie" uchun pravoslavlar kabi xamirturushli non emas, balki xamirturushsiz non iste'mol qilinadi. Bu marosim Isoga hamvujud va qondosh bo'lish uchun bajariladi. Shuningdek, post kunlari baliq, tuxum, yog' yeyish, sut ichishga ruxsat berilgan.

Rim katolik cherkovida, shuningdek, "yakshanba maktabi" ham mavjud. Cherkov a'zolari, asosan, "Uch podsho kuni", "Iso Masihning muqaddas jismi va qoni kuni", "Bibi Maryamning birlamchi gunohsiz tug'ilishi", "Muqaddas Iosif kuni", "Muqaddas Janna Dark kuni", "Barcha avliyolar kuni" kabi bayramlarni nishonlashadi. Bundan tashqari, dehqonchilikdagi hosildorlik bilan bog'liq bo'lgan turli marosimlar, yangi yil kirib kelishi kabi bayramlar ham nishonlanadi[4.53].

Katolik cherkovi qat'iy markazlashgan xarakterga ega bo'lganligi uchun Vatikan shahar davlatiga bo'ysunadi. Shuningdek, Rim kuriyalari orqali boshqariladigan joylardagi cherkov va tashkilotlarga birlashadi.

Ushbu cherkovda katolik jamoa a'zolari tomonidan kundalik ibodatlar va bayramlar nishonlanib kelinmoqda. Xususan, Iso Masihning tavalludi, Xushxabar, Muqaddas Janna Dark kuni, Muqaddas Iosif kuni, Bibi Maryamning arshi a'luga ko'tarilishi va boshqa bayram va marosimlar amalga oshiriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yurtimizning butun tarixi mobaynida musulmon va nasroniy, shuningdek, boshqa din vakillari bilan ham hech qanday nizolar bo'lmaganligi O'zbekiston xalqining tinchliksevar, bag'rikeng ekanligiga yorqin dalildir. Katolik jamoalarining yurtimiz hududlarida paydo bo'lishi Chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi bilan bog'liqligi, muhojir rossiyalik harbiylar, polyaklar, chexlar, fransuz, venger va nemis millatlari tarkibi bu jamoalarning vakillaridan iborat edi. Farg'ona viloyatidagi katolik cherkovi vakillari ham davlat qonunlariga hurmat bilan yondashadilar hamda musulmonlar bilan do'stona aloqadadirlar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5046-Farmoni. 19.05.2017 // <http://lex.uz/docs/3210345>
2. Губаева С. Ферганская долина. Этнические процессы на рубеже XIX-XX вв. Lambert Akademik Publishing 2012. – 261 с.
3. Буряков Ю.Ф., Жукова Л.И., Проскурин В.Н. К истории христианства в Средней Азии (XIX-XX вв.). –Т., 1998. – 270 с.
4. Hasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: Diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. Toshkent islom universiteti – T., 2014. – 551 b.
5. История Ферганской области. <http://ru.ferlibrary.uz/ferhistory>
6. Farg'ona viloyati. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fargona_viloyati
7. Католическая община Ферганы отпраздновала Пасху. <https://fergana.agency/photos/106824/>